


## VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2021- yilning yanvar–sentabrda 6 827 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi (2020- yilning shu davriga nisbatan 34,0 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi 2021- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 2 960 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 43,4 %i), sanoatda 1 688 ta (24,2 %), qurilishda 479 ta (7,0 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 420 ta (6,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 295 ta (4,3 %), tashkil etilgan.

2021- yilning yanvar-sentabr holatiga kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) soni 42 371 ta (o‘tgan yilning shu davrida 34 420 ta) ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari esa 41 073 tani (jamiga nisbatan 96,9 %) tashkil etdi.


**Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi  
tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*birklikda*

	<i>2020- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>5 094</b>	<b>6 827</b>	<b>1 733</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	697	879	182
Qo‘qon	552	743	191
Quvasoy	198	245	47
Marg‘ilon	474	504	30
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	274	371	97
Qo‘sh tepa	178	246	68
Bag‘dod	231	335	104
Buvayda	253	351	98
Beshariq	210	290	80
Quva	274	367	93
Uchko‘prik	234	339	105
Rishton	211	297	86
So‘x	127	146	19
Toshloq	265	362	97
O‘zbekiston	219	329	110
Farg‘ona	199	294	95
Dang‘ara	211	325	114
Furqat	139	209	70
Yozyovon	148	195	47

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
yangi tashkil topgan jami kichik korxonalar  
va mikrofirmalarning ulushi**

*2021- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan %da*



2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Ferg'ona shahrida – 12,9 %, Qo'qon shahrida – 10,8 %, Marg'ilon shahrida – 7,3 %, Oltiariq tumanida – 5,4 %, Quva tumanida – 5,4 %, Toshloq tumanida – 5,3 %, Buvayda tumanida – 5,1 %, Uchko'prik tumanida – 5,0 %, Bag'dod tumanida – 4,9 %, ni tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*birklikda*


	<i>2020- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
<b>Jami</b>	<b>5 094</b>	<b>6 827</b>	<b>1733</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	383	295	-88
Sanoat	1 219	1 688	469
Qurilish	346	479	133
Savdo	2 164	2 960	796
Tashish va saqlash	129	187	58
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	322	420	98
Axborot va aloqa	131	212	81
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	108	155	47
Boshqa faoliyat turlari	292	431	139

2021- yilning yanvar-sentyabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 2 960 ta, shuningdek :



2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 15,2 birlikni tashkil etdi.


**2021- yilning yanvar-sentabrda Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni soni <sup>1)</sup>**  
(har 1000 aholiga, birlikda).



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 23,3 birlik, Quvasoy shahrida 20,4 birlik, Qo'qon shahrida 20,3 birlik, Marg'ilon shahrida 17,6 birlik, Dang'ara tumanida 17,0 birlik, Furqat tumanida 16,4 birlik, Quva tumanida 18,0 birlikni tashkil etdi. Beshariq tumanida 8,8 birlikka teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib qolmoqda.

<sup>1)</sup> Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)

**2021- yilning yanvar-sentabrda shahar va tumanlar bo'yicha  
kichik tadbirkorlik subyektlarining soni soni <sup>1)</sup>**  
(har 1 000 aholiga, birlikda).



**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
YaHMDagi ulushini ko'payish dinamikasi, %da**

2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 71,8 %ni tashkil qildi ( 2020- yilning yanvar-sentabrda 70,2 %).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.




<sup>1)</sup> Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)

**2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>33 307</b>	<b>41 073</b>	<b>8 036</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>5 094</b>	<b>6 827</b>	<b>1 733</b>
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YaHM	%	70,2	71,8	1,6
Sanoat	%	39,6	44,7	5,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,8	97,8	-
Investitsiya	%	60,9	65,8	4,9
Qurilish	%	91,6	88,1	-3,5
Chakana savdo	%	88,7	91,4	2,7
Xizmatlar	%	70,5	69,2	0,5
Yuk tashish	%	92,9	93,4	0,5
Yuk aylanmasi	%	95,3	93,4	-1,9
Yo'lovchi tashish	%	96,6	95,9	-0,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	97,2	-0,1
Eksport	%	59,0	129,1	70,1
Import	%	68,1	80,8	12,7

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**  
(yanvar-sentabr, %da)



**Hududlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari**  
(2021- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan, % da)

	Sanoat		Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		Investitsiyalar		Qurilish	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Viloyat	39,6	44,7	97,8	97,8	60,9	65,8	91,6	88,1
<i>shaharlar:</i>								
Farg'ona	13,5	18,2	91,0	97,8	14,7	37,4	92,7	90,6
Qo'qon	31,5	40,1	99,7	99,7	38,8	71,2	79,9	81,8
Quvasoy	20,5	31,3	94,2	95,9	13,4	65,8	74,1	86,7
Marg'ilon	100,0	100,0	100,0	99,9	81,7	86,2	90,0	63,5
<i>tumanlar:</i>								
Oltiariq	87,8	63,9	99,5	99,3	53,1	86,4	99,7	99,4

	<i>Sanoat</i>		<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>		<i>Investitsiyalar</i>		<i>Qurilish</i>	
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>
Qo‘sh tepa	71,5	47,4	99,5	98,9	24,0	45,8	86,2	89,9
Bog‘dod	76,4	81,1	99,1	97,8	146,3	77,6	97,1	98,6
Buvayda	92,2	90,1	99,8	99,7	90,7	79,0	99,6	99,7
Beshariq	100,0	100,0	98,9	98,1	107,4	92,1	79,8	86,4
Quva	41,9	32,6	99,4	99,6	93,8	66,9	99,4	99,7
Uchko‘prik	77,7	84,2	99,8	99,6	56,5	85,1	99,3	99,6
Rishton	67,9	64,1	99,6	99,5	81,4	43,3	98,8	99,2
So‘x	100,0	100,0	85,2	91,6	89,3	20,6	99,9	99,0
Toshloq	17,6	13,0	99,6	99,4	74,8	73,5	99,8	99,6
O‘zbekiston	50,7	57,9	99,1	99,2	154,4	79,0	99,5	99,4
Farg‘ona	61,6	33,6	87,6	86,9	88,3	63,1	99,2	99,0
Dang‘ara	85,6	87,3	97,4	95,8	91,6	92,9	96,5	96,6
Furqat	100,0	100,0	99,8	99,7	93,1	86,5	99,5	99,6
Yozyovon	100,0	100,0	99,6	99,4	36,1	55,7	67,6	80,2


*davomi*

	<i>Xizmatlar</i>		<i>Savdo</i>		<i>Eksport</i>	
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>
Viloyat	<b>70,5</b>	<b>69,9</b>	<b>88,7</b>	<b>91,4</b>	<b>59,0</b>	<b>51,7</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	57,7	59,2	71,3	83,5	25,5	39,6
Qo‘qon	69,6	74,4	91,6	94,2	19,4	24,5
Quvasoy	81,4	83,7	72,9	81,9	85,9	82,6




	<i>Xizmatlar</i>		<i>Savdo</i>		<i>Eksport</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
Margʻilon	84,1	82,6	98,2	98,2	97,7	98,5
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	85,7	87,4	90,7	89,5	100,0	96,4
Qoʻshtepa	84,1	85,8	94,3	94,6	100,0	21,6
Bogʻdod	77,9	80,1	90,8	93,1	100,0	100,0
Buvayda	80,2	59,9	94,4	94,4	100,0	69,6
Beshariq	73,3	74,6	94,3	93,3	100,0	100,0
Quva	65,8	64,9	87,6	91,4	61,4	58,7
Uchkoʻprik	84,0	58,7	94,6	74,4	98,3	86,3
Rishton	71,5	74,6	94,6	95,6	66,4	70,4
Soʻx	85,1	86,8	98,9	98,8	100,0	100,0
Toshloq	80,6	78,6	83,8	90,4	15,5	11,0
Oʻzbekiston	77,9	78,5	90,0	89,9	100,0	80,4
Fargʻona	81,1	73,9	98,0	98,1	92,7	60,7
Dangʻara	81,7	81,5	95,2	96,3	100,0	63,9
Furqat	85,6	87,7	92,6	92,8	100,0	100,0
Yozyovon	89,0	91,0	91,1	92,3	100,0	100,0

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 303,5 mln. AQSH doll.ni yoki umumiy eksport hajmining 51,7 %ni tashkil etdi.






**Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar)  
eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng koʻp ulushi Bagʻdod tumani – 100,0 %, Beshariq tumani – 100,0 %, Soʻx tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 %, Margʻilon shahri – 98,5 %, Oltiariq tumani – 96,4 % ni tashkil etgan. Eng past koʻrsatkich Toshloq tumani – 11,0 %ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 574,6 mln. AQSH doll.ni yoki umumiy importning 75,0 %ni tashkil etdi.




### Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2021- yilning yanvar-iyunoylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Marg'ilon shahrida – 99,6 %, Dang'ara tumanida – 99,0 %, Buvayda tumanida – 99,0 %, Beshariq tumanida – 98,8 % ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa – 12,4 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari 8 625,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm**




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (1 463,9 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (1 180,9 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (967,3 mlrd. so'm) Marg'ilon shahar (870,5 mlrd. so'm) va Bag'dod (547,6 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (74,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 44,7 foizni tashkil etdi.



2021- yiningl yanvar-sentabr oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Marg'ilon shahari (100,0 %), Beshariq tumani (100,0 %), So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon (100,0 %), Buvayda tumani (90,1 %), Bog'dod tumani (90,1 %) Dang'ara tumani (87,3 %), va Uchko'prik tumani (84,2 hissasiga tegishli. Toshloq tumanida (13,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 12 140,0 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 91,4 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 110,3 %ni tashkil qildi.



**2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri (3 363,2 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (2 537,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (2 740,6 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (460,9 mlrd. so'm), Rishton tumani (313,5 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (303,1 mlrd. so'm) va Bivayda tumani (289,7 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4 358,8 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 88,1 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,7 %ni tashkil etdi.




## 2021- yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (916,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (545,9 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (339,8 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (316,2 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (243,4 mlrd. so'm), Toshloq tumani (210,7 mlrd. so'm) hamda Buvayda (175,0 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 8 915,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 69,9 %ni tashkil kildi. 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 118,4 %ga o'sish kuzatildi.








**2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**





Hududlar bo'yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (2 864,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1 637,3 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (651,7 mlrd. so'm), Oltiariq (386,1 mlrd. so'm), Uchko'prik (291,3 mlrd. so'm), Rishton (260,1 mlrd. so'm) va Buvayda (254,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 92,9 %ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 %ni tashkil qildi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,4 %ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 %ni tashkil qildi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,9 %ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,2 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi.

